


## 2017 yil yanvar – oktyabr oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2017 yilning yanvar– oktyabr oylarida Samarqand viloyatida 1907,4 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 85,7 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 135,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati 120,7 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 46,0 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1846,7 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 96,8 foizini tashkil qildi

va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 0,1 bandga ko'paydi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 60,7 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 3,2 foizini tashkil qildi.



2017 yilning yanvar – oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1516,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,1 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 35,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 241,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,7 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 22,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,5 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 88,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 132,3 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 3,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,6 foizni tashkil qildi.